



OSHQOZON-ICHAK KASALLIKLARIGA CHALINGAN BEMORLARNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Narmetova Yulduz Karimovna

Toshkent davlat tibbiyot universiteti dotsenti,
psixologiya fanlari doktori(DSc)

Sobitova Durдона Muxammadjon qizi

Toshkent davlat tibbiyot universiteti talabasi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.17862549>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 01-dekabr 2025 yil
Ma'qullandi: 05-dekabr 2025 yil
Nashr qilindi: 09-dekabr 2025 yil

KEYWORDS

psixosomatik buzilishlar,
tashvish sindromi,
psixokorreksiya, somatizatsiya,
emotsional reaktivlik,
diskomfort, psixoedukatsiya..

ABSTRACT

Ushbu ma'ruzada oshqozon-ichak tizimi kasalliklariga chalingan bemorlarda kuzatiladigan psixologik o'zgarishlar, ularning kelib chiqish sabablari va namoyon bo'lish mexanizmlari tahlil qilinadi. Oshqozon-ichak kasalliklari nafaqat jismoniy nosog'lomlikni, balki bemorning emotsional holati, stressga bardoshligi, tashvish darajasi va ruhiy barqarorligiga ham bevosita ta'sir qilishi mumkin. Kasallik rivojlanishida surunkali og'riq, ovqat hazm qilishning buzilishi, hayot sifati pasayishi, shuningdek, uzoq davom etuvchi tibbiy muolajalar natijasida bemorlarda depressiya, tashvish sindromi, somatizatsiya kabi psixologik holatlar paydo bo'lishi mumkin. Ma'ruzada psixosomatik aloqalarning o'рни, stressning oshqozon-ichak tizimiga ta'siri, bemorlardagi psixologik reaksiyalar va ularni aniqlash usullari haqida batafsil ma'lumot beriladi. Shuningdek, bemorlarning psixologik holatini baholash, psixokorreksiya va psixoterapiya usullaridan foydalanish imkoniyatlari ham ko'rib chiqilib, kompleks yondashuvning kasallikni boshqarishdagi ahamiyati yoritib beriladi.

Oshqozon-ichak tizimi kasalliklari nafaqat organizmning fiziologik holatiga, balki bemorning ruhiy-emotsional holatiga ham sezilarli ta'sir qiladi. Surunkali og'riq, hazm qilishdagi buzilishlar va kasallikning davomiyligi ko'pincha tashvish, emotsional zo'riqish va depressiv holatlarning paydo bo'lishiga olib keladi. Shu bilan birga, stress va psixologik beqarorlik oshqozon-ichak faoliyatini yanada murakkablashtirib, gastrit, yara kasalligi va irritabl ichak sindromi kabi holatlarning kuchayishiga hissa qo'shadi (Smith et al., 2020; Kim, Park, 2019). Bemorning ruhiy holati va kasallik belgilarining o'zaro ta'siri "psixosomatik aylanish" hosil qiladi, bu esa davolash jarayonini murakkablashtiradi. Shu sababli oshqozon-ichak kasalliklariga chalingan bemorlarni o'rganishda ularning psixologik holatini baholash, stress va emotsional reaksiyalarini aniqlash hamda psixologik yordam choralarini ko'rish muhimdir. Ushbu ishda mazkur bemorlarda kuzatiladigan asosiy psixologik o'zgarishlar, ularni

keltirib chiqaruvchi omillar va bemorning psixologik moslashuv mexanizmlari tahlil qilinadi.

Oshqozon-ichak kasalliklari haqida

Oshqozon-ichak kasalliklari (gastroenterologik kasalliklar) – bu oshqozon, ichaklar va ularning qo‘shni organlarining surunkali yoki o‘tkir patologik holatlari bo‘lib, ovqat hazm qilish jarayonining buzilishi, og‘riq, diskomfort va boshqa simptomlar bilan namoyon bo‘ladi. Ushbu kasalliklar orasida eng ko‘p uchraydiganlari: gastrit, oshqozon va 12 barmoqli ichak yarasi, irritable ichak sindromi, jigar va oshqozon osti bezi bilan bog‘liq buzilishlar hamda surunkali enterit va kolitlar hisoblanadi (Jones, 2018; Lee and Chen, 2021).

Oshqozon-ichak kasalliklarini rivojlanishida psixologik omillarning o‘rni

Oshqozon-ichak kasalliklarining patogenezaida bir qator omillar- *Helicobacter pylori* infeksiyasi, noto‘g‘ri ovqatlanish, irsiy moyillik, dorivor preparatlarni noto‘g‘ri iste‘mol qilish kabi sabablar mavjud bo‘lsada, psixosomatik omillar eng muhim mexanizmlardan biri hisoblanadi. Kuchli va uzoq davom etuvchi stress vegetativ asab tizimi faoliyatini izdan chiqarib, me‘da shirasi sekretsiasining ortishiga, oshqozon shilliq qavati zaiflashuviga va yara shakllanishiga olib kelishi aniqlangan. Shuningdek, shaxsning ruhiy holati immunitetning pasayishiga, bu esa turli xildagi kasalliklarni avj olishiga sharoit yaratadi.

Bemorlar psixologiyasida kuzatiladigan o‘zgarishlar

Kasallikning surunkali harakterga ega bo‘lishi bemorning ongida doimiy xavotir holatini shakllantiradi. Ovqatlanish cheklovleri va kasallikning qaytalanish ehtimoli sabab bemor o‘z salomatligi haqida ortiqcha tushadigan bo‘lib qoladi. Uzoq davom etuvchi og‘riqlar, turmush faoliyatini cheklanishi, umumiy hayot sifatini pasayishi depressiyani keltirib chiqaradi. Bunday bemorlarda kayfiyatning tez o‘rgarishi, charchoq va ishtahaning buzilishi kuzatiladi. Psixosomatik tahlillar shuni ko‘rsatadiki, bemorlarda ko‘pincha salbiy emotsiya – qo‘rquv, xavotir, jahldorlik kuzatiladi. Og‘riqlar kuchaygan paytda shaxsda emotsional fonda keskin o‘zgarishlar yuzaga keladi.

Psixologik o‘zgarishlarning shakllanish mexanizmlari

Stress paytida gipotalamo-gipofizar tizim faollashib, buyrak usti bezida kortizol ajralishi kuchaya boshlaydi. Simpatik tizimning ortiqcha faolligi me‘da sekretsiasining ko‘payishiga olib keladi. Normal holatdagidan ko‘p ishlab chiqarilayotgan shira tufayli oshqozonda turli patologik holatlar yuzaga keladi. Bemor kasallik haqida noto‘g‘ri tasavvurga ega bo‘lsa, bu ruhiy taranglikni yanada oshirib yuboradi.

Psixologik yordam va uning klinik ahamiyati

Oshqozon-ichak kasalliklarida psixologik yordam davolash jarayoning muhim qismi hisoblanadi. Bir necha yondashuv usullari mavjud. 1. Kognitiv-salbiy fikrlash shakllarini kamaytiradi va stressga bardoshlilikni oshiradi. 2. Stressni boshqarish texnikalari (Meditatsiya va Nafas mashqlari) vegetativ tizimni me‘yoriga keltiradi. 3. Psixoedukatsiya- bemorga kasallik haqida kengroq tushuntirish orqali emotsional taranglik kamaytiriladi yoki butunlay oldini olinadi. 4. Sog‘lom turmush tarzini joriy etish orqali jismoniy faollik, uyqu va ovqatlanish muvozanati qayta tiklanadi.

Xulosa

Oshqozon-ichak kasalliklarining kechishi nafaqat jismoniy, balki ruhiy omillar bilan ham chuqur bog‘langan. Psixologik o‘zgarishlar — xavotir, depressiya, asabiylik, emotsional

beqarorlik — kasallikning og'irlashuviga, qaytalanishiga va bemorning hayot sifatining pasayishiga olib keladi. Shuning uchun ushbu kasallikni davolashda psixologik yondashuvni fiziologik davolash bilan uyg'unlashtirish zarur. Kompleks yondashuv bemorning umumiy ahvolini yaxshilaydi, kasallikning surunkali kechishiga to'sqinlik qiladi va reabilitatsiya jarayonini tezlashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rasulov, A. & Tursunova, M. Psixosomatik kasalliklar va stress ta'siri. Toshkent: Universitet nashriyoti, 2019.
2. Smith, J., Brown, L., & Clark, P. Psychological factors in gastrointestinal disorders: Anxiety, depression, and somatization. *Journal of Psychosomatic Research*, 135, 110–118, 2020.
3. Kim, H., & Park, J. The impact of stress on gastric ulcer development: Clinical observations. *Clinical Gastroenterology*, 53(4), 245–252, 2019.
4. Jones, A. Gastrointestinal diseases and mental health: A review. *International Journal of Gastroenterology*, 22(2), 101–110, 2018.
5. Karimovna, N. Y., & Mamatqul o'g'il, A. S. OSHQOZON YARA KASALLIKLARI BILAN KASALLANGAN BEMORLARNING PSIXOLOGIK XUSUXIYATLARI. *Научный импульс*, 263.
6. Нарметова, Ю. (2017). Психология ва медицинада психосоматик ёндашувлар. *ЎзМУ хабарлари*.
7. Нарметова, Ю. (2017). Психология ва медицинада психосоматик ёндашувлар. *ЎзМУ хабарлари*.
8. Нарметова, Ю. (2014). Тиббиёт психологиясида психосоматик касалликлар муаммоси. *ЎзМУ хабарлари*.
9. Нарметова, Ю. (2014). Бемор аёлларда депрессия ҳолатининг психопрофилактикаси. *Таълим тизимида ижтимоий-гуманитар фанлар*, (4), 166-169.
10. Нарметова, Ю. (2017). Психологическая помощь больным с хроническими соматическими заболеваниями.